

## XALQARO MUNOSABATLAR NAZARIYASIDA PRAGMATIZM VA PRAGMATIKALAR

**Abdusamat Abduxalilov Abdumalik o'g'li**

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti  
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti dekan o'rinbosari**

**Diyorbek Niyatullayevich Turayev**

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti  
Siyosatshunoslik yo'nalishi talabasi. Toshkent sh.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421142>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi xalqaro munosabatlar nazariyasida pragmatizm g'oyasining shakllanishi, mazmuni va amaliy ifodasi tahlil qilinadi. Tezisdagi pragmatizmning dastlab falsafiy oqim sifatida yuzaga kelgani, keyinchalik esa geosiyosat va diplomatiya sohasida keng qo'llanilgan real siyosiy yondashuvga aylangani ilmiy asosda yoritiladi. Ayniqsa, realpolitik, geoiqtisodiy manfaatlar, ko'p qutbli dunyoda barqarorlikni ta'minlash kabi global jarayonlarda pragmatizmning strategik ahamiyati misollar asosida tahlil etiladi. Shuningdek pragmatik shaxslar va ularning pragmatik imidji haqida misollar bilan ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar.** Pragmatizm, xalqaro munosabatlar nazariyasi, realpolitik, geosiyosat, diplomatik strategiya, milliy manfaat.

**Аннотация.** В данной тезисной работе анализируются формирование, содержание и практическое выражение идеи прагматизма в теории международных отношений. В тексте обоснованно раскрывается, что прагматизм первоначально возник как философское направление, а впоследствии превратился в широко применяемый в геополитике и дипломатии реалистический политический подход. Особое внимание уделяется стратегической значимости прагматизма в таких глобальных процессах, как реалполитика, геэкономические интересы, обеспечение стабильности в многополярном мире - на основе конкретных примеров. Также приводятся данные и примеры о прагматичных личностях и их прагматичном имидже.

**Ключевые слова.** Прагматизм, теория международных отношений, реалполитика, геополитика, дипломатическая стратегия, национальный интерес.

**Annotation.** This thesis analyzes the formation, essence, and practical application of the idea of pragmatism in the theory of international relations. It is scientifically substantiated that pragmatism initially emerged as a philosophical school and later evolved into a widely used realist political approach in geopolitics and diplomacy. Particular attention is given to the strategic importance of pragmatism in global processes such as realpolitik, geo-economic interests, and maintaining stability in a multipolar world, supported by illustrative examples. Additionally, examples are provided about pragmatic individuals and their pragmatic public image.

**Keywords.** Pragmatism, theory of international relations, realpolitik, geopolitics, diplomatic strategy, national interest.

Pragmatizm (yunoncha *pragma* - "harakat", "amaliy ish") xalqaro munosabatlar nazariyasida bu atama davlatlar yoki siyosiy aktorlarning qarorlarida mafkuraviy qat'iylikdan emas, konkret vaziyat, real manfaatlar va kutilayotgan natijalar asosida harakat qilish

prinsipini anglatadi [1]. Pragmatizm nazariyasi davlatlarni barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyotga erishishda ideologik yondashuvlardan ko'ra, foydali, muvozanatli va amaliy siyosat yuritishga undaydi[2].

Pragmatik tashqi siyosat bu qat'iy mafkuraviy yo'nalishlardan ko'ra, milliy manfaatlar asosida siyosat olib borish, an'anaviy diplomatik ittifoqlardan ko'ra, funksional va holatga moslashuvchan hamkorliklarni afzal ko'rish, hissiy qarorlarga tayanish o'rniga, real ehtiyoj va imkoniyatlar asosida siyosiy yo'nalishlarni shakllantirish tamoyili desak mubolag'a bo'lamaydi. Diplomatik nuqtai nazardan, bu yondashuv tajriba asosida sinov va xatolik orqali yechim topishni qamrab oladi.

Pragmatizm g'oyasining genezi ya'ni kelib chiqishiga keladigan bo'lsak, pragmatizm dastlab falsafiy konsepsiya sifatida XIX asrning oxirlarida Amerika falsafa maktabi doirasida shakllandi[3]. Uning asosiy g'oyasi haqiqat, bilim va qadriyatlar statik yoki abadiy emas, balki foydalilik mezonlari asosida baholanishi lozim, degan fikrga tayangan. Charles Sanders Peirce - pragmatizm atamasining muallifi va asoschisi bo'lib[4], bilimni amaliy natijalar bilan o'lchash zarurligini ta'kidlagan. William James esa pragmatizmni keng falsafiy muhitga olib chiqqan va uni insoniy tajriba, ehtiyoj va amaliy foyda bilan bog'lagan[5]. Pragmatizmni John Dewey ta'lim, demokratiya va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan[6]. Bu yondashuvga ko'ra, har qanday g'oya yoki siyosiy qaror - agar u amaliy jihatdan foyda keltirsa, o'zini oqlaydi.

XX asrda, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan so'ng, pragmatizm xalqaro siyosiy jarayonlarda realistlik yondashuv sifatida shakllandi. Bu davrda g'arb davlatlari, ayniqsa AQSh tashqi siyosatida pragmatik yondashuvni faol qo'llay boshladi. Shuningdek, Richard Nikson ma'muriyati davrida Henry Kissinger tomonidan olib borilgan Xitoy bilan diplomatik yaqinlashuv mafkuraviy qarama-qarshiliklar fonida strategik manfaatlar ustuvor qo'yilgan klassik pragmatizm namunasi sifatida tarixda qolgan[7]. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining Rossiya, Turkiya va Yaqin Sharq bilan bo'lgan energetik va xavfsizlik siyosati, Xitoyning "Bir kamar - bir yo'l" tashabbusida ko'zlangan iqtisodiy manfaatlar ham pragmatik yondashuvning real ifodalaridir.

Pragmatizm xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida, realizm va neorealizmga nisbatan yumshoqroq, ammo amaliy natijalarni ustuvor qo'yuvchi yondashuv sifatida, konstruktivizm va liberal institutsionalizm bilan uyg'unlashgan holda, ideologik dogmalar emas, balki real ehtiyoj va natijalar asosida siyosat olib borishga urg'u beruvchi uslub sifatida qaraladi. Shu jihatdan, pragmatizm an'anaviy nazariy qoidalar majmuasi emas, balki harakatga asoslangan siyosiy tafakkur shaklidir.

Endi pragmatik shaxs atamasiga izoh beradigan bo'lsak. Pragmatik shaxs bu real vaziyatni to'g'ri tahlil etib, hissiy yoki mafkuraviy jihatdan emas, manfaatli, amaliy va oqilona qaror qabul qiluvchi shaxslarni biz pragmatik shaxs deya olamiz. Ular amalda ishonchli ma'lumotlar asosida harakat qiladi, ideal emas mavjud sharoitga tayanadi, vaqtni va resurslarni tejashga intiladi, ularda asosiy natijakorlik omili ustun turadi.

Bunga amaliy misol sifatida, XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida Xitoy Xalq Respublikasida chuqur siyosiy va iqtisodiy transformatsiyalar sodir bo'ldi[8]. Bu davrda mamlakat mafkuraviy qat'iylikdan asta-sekin uzoqlashib, real manfaatlariga asoslangan, amaliy samaradorlikni ustuvor qo'ygan yondashuv

va siyosiy pragmatizm sari yo'nala boshladi. Ushbu burilishning bosh tashabbuskori va ijrochisi sifatida tarixga kirgan arbob - Den Syaopin (Deng Xiaoping) hisoblanadi[9].

***“Qora mushukmi, oq mushukmi - sichqonni tutsa bo’ldi.”***

**Den Syaopin**

Mazkur ibora ideologik dogmalardan voz kechish, ularni real, foydali, natijador amaliyot bilan almashtirish zaruratini ifodalaydi. Den uchun siyosiy qarorlar g’oyaviy soflilik emas, xalq farovonligiga erishish, iqtisodiy o’sishni ta’minlash va davlat suverenitetini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim edi. Bu yondashuv XX asrda kuchli mafkuraviy doiralarda o’zgarishga tayyor bo’lmagan muhit uchun keskin yangilik bo’ldi.

**Xulosa.**

Den Syaopinining faoliyati siyosiy pragmatizmning chinakam amaliy modelini o’zida namoyon etdi. U mafkuraviy qat’iylilik o’rniga realistik, foydali, natijador siyosatni tanlab, Xitoyni xalqaro maydonda yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi Xitoy iqtisodiy qudrati va siyosiy barqarorligi aynan Denning mas’uliyatli, ehtiyotkor va real manfaatlarga asoslangan strategik qarorlarining mevasidir. Den Syaopinining siyosiy merosi shuni ko’rsatadiki, katta mafkuralar emas, balki xalq farovonligiga xizmat qiladigan real harakatlar har qanday davlat siyosatining poydevori bo’lishi lozim.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pragmatizm - Vikipediya
2. <https://www.jstor.org/stable/27899577>
3. Pragmatism (Stanford Encyclopedia of Philosophy)
4. [https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=\\_TUqldjTO80C&oi=fnd&pg=PP9&dq=Charles+Sanders+Peirce+pragmatism&ots=UC4UhJ5YbH&sig=zQU\\_iiVOOAGiFpG5BVA1jj6vUv8](https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=_TUqldjTO80C&oi=fnd&pg=PP9&dq=Charles+Sanders+Peirce+pragmatism&ots=UC4UhJ5YbH&sig=zQU_iiVOOAGiFpG5BVA1jj6vUv8)
5. <https://books.google.com/books?hl=ru&lr=&id=wYSvCwAAQBAJ&oi=fnd&pg=PA13&dq=Charles+Sanders+Peirce+pragmatism&ots=W0GgdGNXOo&sig=W2pE2gPOEp3kcW511Bg6tI67RM>
6. The Necessity of Pragmatism: John Dewey's Conception of Philosophy - R. W. Sleeper - Google Книги
7. Henry Kissinger | Pragmatic Statesman in Hostile Times | Abraham Wagne
8. On Chinese Pragmatism in the 1980s\* | The China Quarterly | Cambridge Core
9. The Ideological Paradigm Shifts of China's World Views: From Marxism-Leninism-Maoism to the Pragmatism-Multilateralism of the Deng-Jiang-Hu Era: Asian Affairs: An American Review: Vol 30 , No 3 - Get Access